

INGLIZ TILI BO‘YICHA TA’LIM XIZMATLARINI TAQDIM ETISH
TO‘G‘RISIDA OMMAVIY OFERTA
Atama va ta’riflar

Ommaviy oferta – bu shartnoma tuzish bo‘yicha taklif. Shartnoma ofertani (uning akseptini) shartsiz qabul qilish orqali tuziladi.

Ofertaning aksepti – ushbu Ofertaning 1.3. bandiga ko‘rsatilgan harakatlarni to‘liq yoki hech qanday shartlarsiz qabul qilish. Ofertaning aksepti Shartnoma tuzilishiga sababchi bo‘ladi. **Bajaruvchi** – 2019 yil 26 aprelda berilgan MO320-son litsenziyaga asosan ta’lim xizmatlarini taqdim etuvchi yuridik shaxs.

O‘quvchi/Buyurtmachi – ushbu shartnoma shartlarini qabul qilgan (ushbu ofertani akseptlagan), shuningdek Bajaruvchi tomonidan tashkil etilgan Ingliz tili Kurslarida ingliz tilini o‘rganayotgan jismoniy shaxs, Xizmatlarning oxirgi foydalanuvchisi.

“CAMBRIDGE GROUP” MCHJ, o‘quv markazi – o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan jihozlar, materiallar, adabiyotlar va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlangan, darslar bevosita o‘tkaziladigan maxsus o‘quv binosi.

1. Umumiyy qoidalar

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asosan ushbu hujjat «CAMBRIDGE GROUP» MCHJning (keyinchalik matnda O‘quv markazi deb nomlanadi) har qanday jismoniy shaxsga (keyinchalik matnda O‘quvchi/Buyurtmachi deb nomlanadi) nisbatan Shartnomani unda keltirilgan shartlar asosida qabul qilishga yo‘naltirilgan rasmiy ommaviy taklifi (ofertasi) hisoblanadi.

1.2. Ushbu Oferta rasmiy hujjat hisoblanadi va o‘quv markazining quyida ko‘rsatilgan manzillarda joylashgan filiallarda amalga oshiriladi:

Toshkent shahri, Chilonzor t., m-v Olmazor m-si, 6/7 (Do‘stlik f-li);

Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek t., Irrigator m-si, 3 uy (Darxon f-li); Toshkent shahri, Shayxontahur t, Beruniy 35A (Tinchlik f-li);

Toshkent shahri, Sergeli t, Yangi Sergeli yo‘li k., 5 u. (Sergeli f-li);

Toshkent shahri, Yunusobod t., ul. Amir Temura k., Yangishahar va Ahmad Donish ko‘chalari kesishmasi (Yunusobod f-li),

Toshkent shahri, Yakkasaroy t., Mirobad 2 (Oybek f-li)

Toshkent shahri, Chilonzor t., Muqimiy k., 1A (Novza f-li),

Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Ma‘rifat MFY, Yusalish ko‘chasi, 108-a-uy, shuningdek, **cambridgeonline.uz** veb-manzili bo‘yicha internet global kompyuter tarmog‘ida joylashtirilgan.

1.3. O‘quvchi/Buyurtmachi tomonidan o‘z shaxsiga doir ma‘lumotlarni O‘quv markaziga taqdim etishi (to‘liq ism, tug‘ilgan sana, telefon raqami) cambridgeonline.uz saytida amalga oshiriladi, shuningdek Oferta shartlari bilan tanishib chiqish va taklifni akseptlash (tasdiqlash) cambridgeonline.uz saytida Oferta shartlarini qabul qilaman tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369 va 370-moddalariga qismalariga asosan, quyida ko‘rsatilgan shartlarni qabul qilib va tegishli miqdordagi to‘lov amalga oshirilsa

(O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq, Ofertani qabul qilish Ofertada ko‘rsatilgan shartlar bo‘yicha shartnomma tuzishga tengdir), ushbu Ofertani qabul qilish(akseptlash) shaxs ushbu Ofertaning Tomoniga aylanadi, bundan keyin O‘quvchi/Buyurtmachi deb nomlanadi. O‘quv markazi va O‘quvchi/Buyurtmachi ham ushbu Oferta bo‘yicha birgalikda Tomonlar, alohida esa Tomon deb yuritiladi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bajaruvchi O‘quvchi/Buyurtmachining topshirig‘I bilan «CAMBRIDGE GROUP» MCHJ o‘quv markazida «Ingliz tili Kursi» dasturi bo‘yicha ta’lim xizmatini ko‘rsatish (keying o‘rinlarda «Xizmatlar» deb nomlanadi) O‘quvchi/Buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to‘lash majburiyatini oladi.

2.2. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar nomidan ushbu Shartnomani Buyurtmachisi sifatida faqat ularning ota-onalari (voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillari bo‘lishi mumkin bo‘lgan homiyalar, vasiylar yoki boshqa shaxslar) tomonidan imzolanashi mumkin.

2.3. Xizmatlar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanuvchi «Ingliz tili kurslarida o‘qitish Qoidalari»ga muvofiq ko‘rsatiladi.

2.4. O‘quv markazi cambridgeonline.uz O‘quv markazi veb-saytida e’lon qilingan amaldagi narxlar ro‘yxatiga muvofiq xizmatlar ko‘rsatadi va O‘quvchi/Buyurtmachi ushbu Ommaviy oferta shartlariga muvofiq xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshiradi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatları.

3.1 O‘quv markazining huquq va majburiyatları.

3.1.1. O‘quv markazi ushbu Ommaviy ofertaning 2.1-bandida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va tegishli tarzda bajarilishini ta’minalash majburiyatini oladi.

3.1.2. O‘quv markazi O‘quvchi/Buyurtmachini bosqich yakunida sinovdan o‘tkazish va test natijalariga asosan uni «Ingliz tili kurslarida o‘qitish Qoidalari»ga muvofiq keying ta’lim bosqichiga o‘tkazish/joriy bosqichda qoldirish/o‘qishni davom ettirishni rad etish va ushbu Ofertani bir tomonlama tartibda bekor qilishi mumkin.

3.1.3. O‘quv markazi o‘qish uchun to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, talabaning darslarga va shaxsiy kabinetiga kirishini cheklash huquqiga ega.

3.1.4. O‘quv markazi O‘quvchi/Buyurtmachining roziligidisiz o‘qitishning butun davri davomida o‘qituvchini almashtirishga huquqiga ega.

3.1.5. O‘quv markazi, agar O‘quvchi/Buyurtmachi talab qilgan holatlarda ham, o‘qituvchini almashtirmaslik huquqiga ega.

3.1.6. Dars jadvali va o‘quv mashg‘ulotlari olib boriladigan filialning o‘zgartirilishi taraflar kelishuviga ko‘ra amalga oshiriladi. O‘quv xonalari va o‘quv guruxlarini o‘zgartiriliishi o‘quv markazi tomonidan mustaqil hal qiliniadi.

3.1.7. Agar guruhda 5 yoki 6 nafardan kam o‘quvchi qolsa, O‘quv markazi guruhnini yopish va o‘quvchilarni boshqa guruhlarga taqsimlash huquqiga ega.

3.1.8. Agar O‘quvchi/Buyurtmachi darslarni qoldirsa, O‘quv markazi u tomonidan qoldirilgan dars oshirgan to‘lovlarni boshqa shaxs hisobiga o‘tkazish bo‘yicha tranzaksiyalarni amalga oshirmaydi.

3.1.9. O‘quv markazi Talabaning IELTS imtihon sertifikatlaridan faqat Buyurtmachi bilan holda reclama materiali sifatida foydalanish huquqiga ega.

3.1.10. O‘quv markazi mustaqil ravishda o‘quv jarayonini amalga oshirish, baholash tizimlari, O‘quvchi bilimini tekshirish shakllari, tartibi va davriyligini tanlash huquqiga ega.

3.1.11. O‘quvchi/Buyurtmachi ushbu Ofertaning amal qilish muddati davomida qonun va ushbu Oferta shartlarini buzgan bo‘lsa, O‘quv markazi O‘quvchi/Buyurtmachini darslardan chetlashtirishga/shaxsiy kabinetga kirishini cheklashga haqli.

3.1.12. Agar O‘quvchi/Buyurtmachi ta’lim jarayonida O‘quv markazi xodimlarini yoki boshqa O‘quvchi/Buyurtmachilarni og‘zaki yoki yozma ravishda haqorat qilganligi dalillar va guvohlar orqali isbotlansa, O‘quv markazi O‘quvchi/Buyurtmachini darslardan chetlashtirishga/shaxsiy kabinetga kirishini cheklash huquqiga ega.

3.1.13. O‘quv markazi tomonidan ushbu Ommaviy Ofertaga o‘zgartirilishi mumkin. Kiritilgan o‘zgarishlar Ommaviy Oferta matnining bir qismi sifatida e’lon qilinishi bilan kuchga kirgan hisoblanadi. Binobarin, kiritilgan eski shartnomalarga ta’sir etmaydi. O‘zgartirish kiritilgandan keyin yangi shartnomalar tuzilganda yoki eski shartnomalar yangilanganda, kiritilgan o‘zgartirishlar shartnomaning bir qismi hisoblanadi.

3.2. O‘quvchi/Buyurtmachining huquq va majburiyatları.

3.2.1. O‘quvchi/Buyurtmachi Shartnoma tuzilgunga qadar va to‘lov amalga oshirilgunga qadar ushbu oferta mazmuni va shartlari, cambridgeonline.uz veb-saytida joylashtirilgan O‘quv markazi xizmatlari narxi bilan tanishishi shart.

3.2.2. O‘quvchi/Buyurtmachi tomonidan dastlabki to‘lovni amalga oshirish O‘quvchi/Buyurtmachi tomonidan ushbu Oferta shartlari bilan tanishish va qabul qilinishini anglatadi.

3.2.3. O‘quvchi/Buyurtmachi har oyning 5-sanasiga qadar o‘quv mashg‘uloti uchun to‘lovni amalga oshirishga majburdir.

3.2.4. O‘quvchi/Buyurtmachi o‘qituvchi tomonidan darslarga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha berilgan mustaqil topshiriqlarni bajarishga, tasdiqlangan jadvalga muvofiq mashg‘ulotlarda ishtirok etish majbur, ushbu Oferta bo‘yicha o‘qish huquqlarini uchinchi shaxslarga o‘tkazishi mumkin emas.

3.2.5. O‘quvchi/Buyurtmachi ta’lim doirasida taqdim etilgan materiallar va ma’lumotlarni (qog‘oz, electron yoki boshqa shaklda) tijorat yoki notijorat maqsadlarda (nusxalash, nashr qilish, Internet-resurslarga joylashtirish, uchinchi shaxslarga berish yoki qayta sotish ko‘rinishida) tarqatmaslik, olingan materiallar asosida tijoriy mahsulotlarni yaratish va ushbu ma’lumotlardan shaxsiy foydalanishdan tashqari har qanday usulda foydalanmaslik majburiyatini oladi.

3.2.6. Agar O‘quvchi/Buyurtmachi guruhnинг tugatilishi munosabati bilan taklif qilingan variantlardan o‘ziga mos bo‘lgan boshqa guruhga o‘tishga qaror qilsa, u holda O‘quvchi/Buyurtmachi kurs uchun to‘lovni amalga oshirish va ushbu guruhda o‘qishni davom ettirish majburiyatini oladi.

3.2.7. O‘quvchi/Buyurtmachi «Ingliz tili kurslarida o‘qitish Qoidalari»ga (2-Ilovada ko‘rsatilgan) rivoja etish majburiyatini oladi.

3.2.8. O‘quvchi/Buyurtmachi O‘quv markazi tomonidan berilgan o‘quv-uslubiy materiallarni va O‘quv markazining o‘quv jarayoniga kirish huquqini uchinchi shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi.

3.2.9. O‘quvchi/Buyurtmachi O‘quv markazining dastlabki talabiga binoan u tomonidan O‘quv markazining mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi.

3.2.10. O‘quvchi/Buyurtmachi O‘quv markazi hududida umum e’tirof etilgan odob axloq normalariga amal qilishi kerak. (Baland ovozda musiqa tinglashi, video va filmlar tomosha qilishi, shovqin suron ko‘tarishi, o‘quv markazi hududida tamaki mahsulotlarni iste’mol qilish taqiqlanadi).

3.2.11. O‘quvchi/Buyurtmachi O‘quv markazining o‘quv jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mulkidan jadvalda nazarda tutilgan mashg‘ulotlar vaqtida foydalanish huquqiga ega.

3.2.12. O‘quvchi/Buyurtmachi o‘quv jarayoni bilan bog‘liq masalalar yuzasidan O‘quv markazi xodimiga murojaat qilish huquqiga ega.

3.2.13. O‘quvchi/Buyurtmachi bilim, ko‘nikmalarni baholash, shuningdek, ushbu baholash mezonlari haqida to‘liq va ishonchli ma’lumot olish huquqiga ega.

4. Xizmatlar narxi va hisob-kitob qilish tartibi.

4.1. Xizmatlarning narxi QQSni hisobga olmagan holda narxlar ro‘yxatida O‘zbekiston Respublikasi so‘mida ko‘rsatilgan (1-Ilova).

4.2. Ushbu oferta bo‘yicha to‘lov O‘quvchi/Buyurtmachi tomonidan birinchi darsidan so‘ng Buyurtmachi/O‘quvchi darajasini aniqlash natijalariga ko‘ra quyidagi tartibda amalga oshiriladi: ta’limning birinchi oyi uchun oylik to‘lov 100% miqdorda amalga oshiriladi, Keyingi oylar uchun to‘lovlar 12 ta mashg‘ulot uchun har oyning 5 sanasiga qadar oldindan amalga oshiriladi. Ba’zi oylarda dars mashg‘ulotlari kalendar oyning uzunligiga qarab 13-14 tagacha o‘tiladi va ushbu mashg‘ulotlar uchun to‘lov undirilmaydi.

4.3. O‘quvchi/Buyurtmachi tomonidan qoldirilgan darslar uchun to‘lov qaytarilmaydi. O‘quv markazida qoldirilgan darslarning boshqa darslar bilan o‘rnini to‘ldirish imkonи mavjud bo‘lsa, dars mashg‘ulotlari tashkil qilinadi.

4.4. Xizmatlar uchun to‘lov naqd va naqdsiz (bank kartasi orqali, pul o‘tkazmalari ko‘rinishida) ko‘rinishda amalga oshirilishi mumkin. Naqdsiz shaklda to‘lov amalga oshirilganda uni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar Buyurtmachi/O‘quvchi tomonidan to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab bir hafta ichida taqdim etilishi kerak.

5. Umumiy tartiblar.

5.1. Dars kunlari O‘zbekiston Respublikasida nishonlanadigan bayramlarga to‘g‘ri kelganda hamda binoga kirish cheklangan taqdirda, darslar bekor qilinadi va boshqa kunga o‘tkazilmaydi, amalga oshirilgan to‘lov keying oyga o‘tkazilmaydi va qaytarib berilmaydi.

5.2. O‘quv markazi bir oy davomida 16 kishigacha (o‘quvchilar soni istisno tariqasida texnik sabablar va boshqa holatlarda 18 kishigacha) bo‘lgan guruhda 80 daqiqa davomida 12] ta mashg‘ulot o‘tkaziladi.

5.3. Dars mashg‘ulotlari shartnomaning 5.2. bandida nazarda kam bo‘lsa, O‘quvchi/buyurtmachi adminstratsiyaga murojaat qilganidan so‘ng o‘quv markazi tomonidan mashg‘ulotlar qo‘srimcha ravishda qoplab beriladi.

5.4. Agar O‘quvchi/Buyurtmachi ma’lum miqdordagi darslarni o‘tkazib yuborsa va o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lsa, u holda 12 ta mashg‘ulot uchun to‘liq miqdorda to‘lov undiriladi. Shuningdek, O‘quvchi/Buyurtmachi to‘lov muddati tugagunga qadar O‘quv markazini tark etish haqida yozma ravishda ogohlantirmagan bo‘lsa, to‘lov 12 ta mashg‘ulot uchun to‘liq hajmda undiriladi.

5.5. Agar imtihon muvaffaqiyatsiz yakunlansa va tegishli guruhlar O‘quv markazida mavjud bo‘lmasa, amalga oshirilgan to‘lov keying oyga o‘tkazilmaydi hamda qaytarilmaydi va

O‘quvchi/Buyurtmachi o‘z guruhidagi o‘qishni yangi oy boshlangunga qadar davom ettirishi shart.

5.6. Buyurtmachi tomonidan to‘lov amalga oshirilganidan so‘ng o‘quv markazi tomonidan O‘quvchiga o‘quv kurslari turiga qarab bir yoki ikki dona kitob va bir daftар dars mashg‘ulotlarda foydalanishi uchun bepul taqdim qilinadi.

5.7. O‘quv markazi dars mashg‘ulotlaridan tashqari buyurtmachining so‘roviga ko‘ra o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun qo‘s Shimcha o‘qituvchi(support teacher) bilan bepul ta’minlashi mumkin. Ushbu qo‘s Shimcha darslar tomonlarning kelishuviga va vaqtarning to‘g‘ri kelishiga qarab belgilanadi.

6. Boshqa shartlar

6.1. Bajaruvchi Buyurtmachi/O‘quvchi oldida quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

6.1.1. Kursning yakuniy natijalari qoniqarli bo‘lmaganligi O‘quvchi/Buyurtmachining aybi bilan bo‘lsa (darslarga ishtiroy etmaslik, uy vazifalarini bajarmaslik, Kurs dasturini bajarmaslik va h.k.);

6.1.2. Agar majburiyatlarni bajarmaslik/lozim darajada bajarmaslik O‘quv markazining aybisiz vujudga kelsa;

6.1.3. Agar majburiyatlarni bajarilmasligi/lozim darajada bajarilmaganligi O‘quvchi/Buyurtmachining aybi bilan sodir etilgan bo‘lsa;

6.1.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganda.

6.2. O‘quv markazi O‘quvchi/Buyurtmachiga ushbu Ommaviy oferta bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishni quyidagilarga asosan rad etishga haqli:

6.2.1. Ushbu ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bir necha marta buzsa, bu o‘z navbatida O‘quv markazi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini qiyinlashtirsa va O‘quv markazining boshqa o‘quvchilari va xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa;

6.2.2. Ommaviy ofertada belgilangan to‘lovni amalga oshirish muddatlarini buzsa;

6.2.3. Birinchi to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab uch ichida O‘quvchi/Buyurtmachi o‘zining shaxsga doir ma’lumotlarini (to‘liq ismi, tug‘ilgan sanasi, telefon raqami) va shaxsini tasdiqlovchi skanerlangan hujjatini (pasport, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma) cambridgeonline.uz electron pochtasi orqali O‘quv markaziga yuborishi shart.

6.2.4. O‘quvchi/Buyurtmachi electron pochtada ro‘yxatdan o‘tish uchun ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgardir.

6.2.5. O‘quvchi/Buyurtmachi ushbu Ommaviy ofertaning barcha shartlari unga tushunarli ekanligini kafolatlaydi va O‘quvchi/Buyurtmachi shartlarni hech qanday boshqa shartlarsiz va to‘liq qabul qiladi.

6.2.6. Tomonlar o‘z vaqtida zarur choralarini ko‘rish uchun ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarishga to‘sinqilik qilayotgan holatlar haqida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilish majburiyatini oladilar.

6.2.7. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova «Xizmatlar narxi»

2-ilova «Ingliz tili kurslarida o‘qitish qoidalari».

3-ilova «Cambridge points/coinslarni jamg‘arish va ishlatalish tartibi»

7. Fors-Major

7.1. Tomonlar ushbu Shartnomaga bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu yengib bo‘lmas kuch holatlari natijasida sodir bo‘lsa,

jumladan: yong‘inlar, zilzilalar, epidemiya va pandemiya holatlari, harbiy harakatlar va boshqalar natijasida, agar bu holatlar ushbu Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir qilgan bo‘lsa.

7.2. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkonsiz bo‘lgan Tomon o‘n kun ichida yuqorida ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelganligi va bekor qilinganligi to‘g‘risida ikkinchi tomonni xabardor qilishi shart.

8. Oferta shartnomaning amal qilish muddati va ko‘rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish tartibi.

8.1. Shartnoma tuzilgan (oferta akseptlangan) paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amal qiladi.

8.2. Ushbu Ommaviy oferta yuqorida qayd etilgan maqsadlar doirasida, cheklanmagan muddatga tuziladi.

8.3. Oferta shartnomasini bekor qilishda shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi dalolatnama tuzilmaydi va tomonlar uni imzolamaydi.

8.4. Ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlar tugatilgandan so‘ng ko‘rsatilgan xizmatlar to‘g‘risidagi dalolatnama tuzilmaydi va imzolanmaydi. Qabul qilish dalolatnomalarni imzolamasdan amalga oshiriladi. Oxirgi pullik dars tugaganidan keyin o‘n calendar kun ichida O‘quv markazi O‘quvchi/Buyurtmachidan o‘tkazilgan darsning sifati bo‘yicha asoslantirilgan yozma e’tirozini cambridgeonline.uz electron orqali olmasa, Xizmatlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan va Buyurtmachi tomonidan to‘liq qabul qilingan hisoblanadi.

8.5. Ushbu Ommaviy ofertani bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Tomonlar o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Agar ular muzokaralar yo‘li bilan bartaraf etishning iloji bo‘lmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi kerak.

9. Rekvizitlar

«CAMBRIDGE GROUP» MCHJ – 2019 yil 26 aprelda berilgan MO320-son litsenziyaga asosan ta’lim xizmatlarini taqdim etuvchi yuridik shaxs.

Yuridik manzili: Toshkent shahri, Chilonzor t., m-v Olmazor m-si, 6/7;

H/r: 8000 7009 3526 9001; «ORIYENT FINANS» XAT Banki

MFO: 01071;

STIR: 305 803 863;

IFUT: 85590;

Tel.: 78 777 77 74

Direktor: Pulatov J.X.

1-Ilva

Ta'rif nomi	Guru-dagi tinglov-chilar soni	Bir oyda mashg'ulot-lar soni	Har bir mashg'u lot narxi (Sergeli & "Inyaz")	To'liq bir oy ta'lism uchun to'lov narxi (Sergeli & "Inyaz")	Har bir mashg'ulot narxi (Farg'ona)	To'liq bir oy ta'lism uchun to'lov narxi (Farg'ona)	Har bir mashg'ulot narxi (qolgan filiallar)	To'liq bir oy ta'lism uchun to'lov narxi(qolgan filiallar)
Group GE	14±2	12	74,000	888 000	62 500	750 000	83,000	996,000
Group IELTS	14±2	12	74,000	888 000	65 000	780 000	83,000	996,000
Individual	1	12	100,000	1 200 000	87 500	1,050,000	110,000	1,320,000
Mini Group 2x	2	12	125,000	1 500 000	112 500	1,350,000	135,000	1,620,000
Mini Group 3x	3	12	150,000	1 800 000	137 500	1,650,000	160,000	1,920,000
Mini Group 4x	4	12	250,000	3 000 000	225 000	2,700,000	275,000	3,300,000

«CAMBIDGE GROUP» MCHJning ingliz tili kurslarida o‘qitish qoidalari

Darajani aniqlash:

Ingliz tilini bilish darajasini aniqlash uchun O‘quvchi/Buyurtmachi O‘quv markazi/Bajaruvchi tomonidan tuzilgan testlardan o‘tishlari shart. Test sinovlari natijalariga ko‘ra, Bajaruvchi ingliz tilini bilish darajasini aniqlaydi va O‘quvchi/Buyurtmachini tegishli darajadagi guruhlarga taqsimlaydi.

Keyingi bosqichga o‘tish:

Har bir bosqichning oxirida O‘quvchi/Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan tashkil etiladigan dasturi bo‘yicha yakuniy imtihondan o‘tishi va 65 balldan yuqori ball to‘plashi shart. Agar O‘quvchi/Buyurtmachi kerakli miqdordagi ball to‘play olmasa, O‘quvchi/Buyurtmachi o‘z mablag‘lari hisobidan qo‘srimcha darslar orqali o‘qitilishi va imtihonni qayta topshirishga urinib ko‘rishi mumkin. Agar talaba uzrsiz sabablarga ko‘ra belgilangan kunda imtihonga kelmasa, Bajaruvchi o‘z xohishiga ko‘ra u uchun qayta imtihon tashkil etish yoki qayta imtihon o‘tkazishni rad etishga haqli.

IELTS LEVEL 1dan IELTS LEVEL 2ga o‘tish uchun O‘quvchi/Buyurtmachi o‘quv markazida mavjud bo‘lgan imtihondan (MOCK EXAM) 5.5 ball to‘plashi lozim.

Guruohni/o‘qituvchini almashtirish:

O‘quvchi/Buyurtmachi Bajaruvchining o‘quv jarayoni uchun mas’ul bo‘lgan shaxsining roziligidiz o‘z guruuhlarini o‘zgartirishga haqli emas. Agar guruuhnинг darajasi O‘quvchi/Buyurtmachining bilimiga mos kelmasa yoki taklif qilingan vaqt unga mos kelmasa, bu holda guruh Bajaruvchi ma’muriyati yordamida o‘zgartiriladi.

Agar O‘quvchi ishtirok etadigan guruhdagi Xizmatlarning sifati unga yoqmasa, O‘quvchi/Buyurtmachi Bajaruvchining mas’ul shaxsi bilan kelishilgan holda boshqa guruhga o‘tish birinchi darsdan keyin darhol o‘qituvchisini almashtirishni so‘rash huquqiga ega. Ikkinchisi va keyingi darslardan so‘ng guruhn/o‘qituvchini almashtirishga ruxsat berilmaydi(o‘quv markazida O‘quvchi/Buyurtmachining talabini qondirish imkonni bo‘lgan holatlar bundan mustasno.)

Darslarni qoldirish:

Agar O‘quvchi/Buyurtmachi belgilangan vaqtida darsga kelmasa, Markaz darsni O‘quvchi/Buyurtmachingiz boshlashga haqli. O‘quvchi/Buyurtmachi belgilangan vaqtida kelmagan taqdirda, O‘quvchi/Buyurtmachining aybi bilan dars o‘tkazib yuborilgan deb hisoblanadi.

To‘lovni qaytarish:

O‘quvchi/Buyurtmachi tomonidan to‘langan pul mablag‘larini qaytarish va muzlatish hech qanday sharoitda amalga oshirilmaydi.

Ota-onalar bilan aloqa:

Har bir voyaga yetmagan O‘quvchi o‘z ota-onasi yoki ularning vasiy(homiy)lari haqida ma’lumot berishi shart. Darslarga borish, pul to‘lash va imtihon topshirish bilan bog‘liq barcha savollar Bajaruvchi tomonidan voyaga yetmagan talabalarning ota-onalariga jo‘natiladi.

Yosh cheklolvari:

Bajaruvchi xizmatlarni taqdim etadigan minimal yosh – 13 (o‘n uch) yosh.

Adabiyotlar:

Kurs uchun to‘lovni amalga oshirgandan so‘ng, Bajaruvchi har bir O‘quvchi/Buyurtmachiga har bir darajaga tegishli barcha kerakli o‘quv materiallarini taqdim etadi.

O‘quv markazida o‘zini tutish:

- O‘quvchi darsga barcha kerakli darsliklar va kanselyariya buyumlari bilan kelish.

- O'quvchi/Buyurtmachining alkogol, giyohvandlik yoki toksik mastlik holatida darslarga ishtirok etishi taqiqlanadi.
 - O'quvchi/Buyurtmachi dars vaqtida chalg'ishi va boshqa talabalarni chalg'itishi taqiqlanadi.
- O'quv markazida o'zini tutish:
- O'quvchi/Buyurtmachining xizmat ko'rsatish binolariga kirishi taqiqlanadi.
 - O'quvchi/Buyurtmachi markaz hududida tozalik va tartibni saqlash majburiyatini oladi.
 - O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan darslarni AUDIO va VIDEO yozuvlarga tushurish taqiqlanadi.
 - O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazi mol-mulkiga vijdonan munosabatda bo'lishi shart.

«Cambridge points/coinslarni jamg‘arish va ishlatish tartibi»

1. O‘quvchi/buyurtmachi o‘quv markazida dars mashg‘ulotlarda ishtirok etishi orqali **Cambridge points(ball)** jamg‘arish imkoniyatiga ega. Ushbu points(ballar) dars mashg‘ulotiga vaqtida kelganlik, berilgan uyga vaziflarni to‘liq va to‘g‘ri bajarganlik, video materiallardan maqsadli foydalanganlik va boshqa holatlar uchun taqdim qilinadi.
2. O‘quvchi/buyurtmachi to‘plagan points(ball)larni **Cambridge coins(onlayn valyuta)**ga almashtirish mumkin bo‘ladi. **10 Cambridge points=1 Cambridge coinga** teng.
3. O‘quvchi/buyurtmachi o‘z **Cambridge coins(onlayn valyuta)**lariga **Cambridge shop** onlayn do’konda mavjud bo‘lgan mahsulotlarni sotib olishi mumkin.
4. **Cambridge shopda** mavjud bo‘lgan mahsulotlarning narhlari o‘quv markazi tomonidan mustaqil belgilanadi.
5. O‘quvchi/buyurtmachi tomonidan **Cambridge shopdan** sotib olgan mahsulotini **4 hafta** davomida olib ketmasa omborga qaytariladi va **Cambridge coins(onlayn valyuta)**lar qaytarib berilmaydi.
6. O‘quv markazida yakshanba kunlari tashkil etiladigan tadbirdarda ishtirok etish O‘quvchi/buyurtmachi hohishiga ko‘ra amalga oshiriladi. Tadbirlarda bepul yoki **Cambridge coins (onlayn valyuta) vositasida to‘lovni amalga oshirish orqali ishtirok etish mumkin**.
7. O‘tkaziladigan tadbirdarda o‘rinlar cheklanganligi sababli, joylarni band qilishga ulgurgan ishtirokchilargina qatnashish huquqiga ega bo‘ladi.
8. O‘quv markazida yakshanba kunlari o‘tkaziladigan **mock examsda** ingliz tilini bilish darajasi IELTSga mos bo‘lgan O‘quvchi/buyurtmachilar ishtirok etishi mumkin bo‘ladi. Ushbu imtixonlar bepul tashkil qilinadi. **Mock examsda** ajratilgan joylar **100-tagacha** o‘rin atrofida bo‘lib, joylarni band qilishga ulgurgan ishtirokchilargina qatnashish huquqiga ega bo‘ladi.
9. BONUSLAR olish uchun talaba IELTS LEVEL 1 yoki LEVEL 2 o‘quv kursini 3 (uch) oydan kam bo‘lмаган muddatda o‘qishi va imtihon natijalariga ko‘ra bonuslar taqdim qilinadi:
 - 7,5 ball to‘plasa **1 000 000 (bir million)** so‘m;
 - 8,0 ball to‘plasa **2 000 000 (ikki million)** so‘m;
 - 8,5 ball to‘plasa **1 000 (ming) Aqsh dollariga** teng miqdorda so‘m mablag‘lari taqdim etiladi.